

**ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA HODIMLARNING MEHNAT
SHAROITLARINI YAXSHILASH BO‘YICHA TAVSIYALAR
ISHLAB CHIQISH**

**РАЗРАБОТКА РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО УЛУЧШЕНИЮ УСЛОВИЙ ТРУДА
РАБОТНИКОВ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**DEVELOPMENT OF RECOMMENDATIONS FOR IMPROVING WORKING
CONDITIONS OF EMPLOYEES IN MANUFACTURING ENTERPRISES**

Turakulova Gulasal Zohidjon qizi

Andijon mashinasozlik instituti,
“Mehnat muhofazasi kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
www.gulasal22@gmail.com Tel:+998946179086

Annotatsiya

Mehnat sharoitlarini har tomonlama sog’lomlashhtirish va yengilashtirish korxonalarda mehnatni tashkil qilishning muhim yo’nalishlaridan biridir. Shuning uchun ham mehnat sharoitini yaxshilash va xalq farovonligining to’xtovsiz o’sib borishiga ta’sir qiluvchi mehnat samaradorligini oshirish omili bugungi kunning muhim va dolzarb masalasi hisoblanadi. Hodimlarning ish jarayonlari unumli bo‘lishi, ularning sog’lomligi natijasida ish qobiliyatini yo’qotmasligi va uning garmonik rivojlanishini ta’minlash uchun mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitlari yaratilishi zarur. Ushbu ilmiy maqolada mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan muammolar o’rganildi va unga ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Аннотация

Одним из важных направлений организации труда на предприятиях является комплексное улучшение и модернизация условий труда. Поэтому фактор улучшения условий труда и повышения производительности труда, влияющий на непрерывный рост благосостояния людей, является важным и актуальным вопросом современности. Необходимо создавать социально-экономические и производственные условия труда для того, чтобы качества организма работников были полезными и продуктивными, чтобы человек не терял трудоспособности вследствие состояния своего здоровья, а также обеспечивал его гармоничное развитие. В данной научной статье особое внимание уделяется работнику, основной производительной силе общества, в центре проблем улучшения условий труда.

Annotation

One of the important directions of labor organization in enterprises is the comprehensive improvement and modernization of working conditions. Therefore, the

factor of improving working conditions and increasing labor efficiency, which affects the continuous growth of people's well-being, is an important and urgent issue of today. It is necessary to create socio-economic and production conditions of work in order to ensure that the qualities of the employees' organisms are useful and productive, that the person does not lose his ability to work as a result of his health, and to ensure his harmonious development. In this scientific article, special attention is paid to the employee, the main productive force of society, in the center of the problems of improving working conditions.

Kalit so'zlar: mehnat sharoitlari, samaradorlik, jarohat, kasb kasalliklari, xavfsizlik madaniyati

Ключевые слова: система мониторинга, причины травматизма, рабочая среда, МОМ, несчастные случаи

Key words: working conditions, productivity, injury, occupational diseases, safety culture

Mehnat sharoitlarini har tomonlama sog'lomlashadirish va yengilashtirish korxonalarda mehnatni tashkil qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun ham mehnat sharoitini yaxshilash va xalq farovonligining to'xtovsiz o'sib borishiga ta'sir qiluvchi mehnat samaradorligini oshirish omili bugungi kunning muhim va dolzarb masalasi hisoblanadi. Hodimlar ish faoliyatini foydali va unumli bo'lishi, ularning sog'lomligi natijasida mehnat qilish qobiliyatini yo'qotmasligi va uning garmonik rivojlanishini ta'minlash uchun mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitlari yaratilishi zarur. Mehnat sharoitlarini yaxshilash muammolari markazida jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi – hodim turadi[1].

Mehnat sharoitini yaxshilash uchun uning unumdorligini oshirish, ish jarayoni qiziqarli va xavfsiz bo'lishini, shuningdek, hodimning mehnat qobiliyati va hayot faoliyati uzoq vaqt saqlanishini ta'minlovchi muhim omildir. Mehnat sharoiti keng ma'noda o'zaro bir-biriga bog'liq butun bir ishlab chiqarish omillari majmuuni o'z ichiga oladi. Bu majmuuga mehnat va dam olish tartibi, ish joyi va butun binoni, korxona maydonini yoritish, ishlab chiqarish binosi va butun asbob-uskunalarini texnika estetikasi talablariga muvofiq bo'lishi ya'ni, havo harorati, bino va ish joyidagi havoning tozaligi, ishlab chiqarish shovqini va tebranishlardan muhofaza qilish, ishlab chiqarishda ishchilarga odatdagi (normal) maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish singari masalalar kiradi[2].

Shunday qilib, mehnat sharoitlari deganda, hodimlarni ish bajarish, xizmat ko'rsatish jarayonida kishining sog'ligi va ish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish omillarining umumiyl jamlanmasi tushiniladi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha korxonalarda mehnatni tashkil qilish tadbirlari rejalashtirilayotganda quyidagi sharoitlar va talablar yetarlicha hisobga olinishi zarur:

- 1. mehnatning umumiy sharoitlari;**
- 2. mehnatning texnika sharoitlari;**
- 3. mehnat xavfsizligi sharoitlari;**
- 4. sanitariya- gigiena sharoitlari;**
- 5. estetik sharoitlar.**

Mehnatning umumiy sharoitlari – ishlab chiqarish va maishiy binolarning holatidan, ish o‘rinlarini, dam olish burchaklari va joylarini tashkil qilish va jihozlashdan, ishchilarni shifobaxsh, profilaktik ovqatlar, ichimliklar, maxsus kiyim - bosh, poyabzal bilan ta’minlashdan iborat. Mehnatning umumiy sharoitlari mehnat va dam olish tartibi bilan o‘zaro bog’liqdir. Mehnatning texnika sharoitlari mehnat qurollarining (uskunalar, mashinalar, instrumentlarning) texnika darajasi, ishlab chiqarish texnologiyasining qanchalik mukammalligi bilan xarakterlanadi. Texnika sharoitlarining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi, umumiy mehnat sarfida qo‘l mehnatning hissasidir. Mehnat xavfsizligi sharoitlari xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qilishning holatiga bog’liq. Bu jihatdan normal sharoit yaratishning asosiy ko‘rsatkichi mayib bo‘lish (travma), kasb kasalliklarining bo‘lmasligidir. Mehnatning sanitariya-gigiena sharoitlariga havoning holati (harorat, namlik, havodagi chang va gaz darajasi), shovqin, tebranish (vibratsiya), yoritilganlik darajasi kabilar kiradi. Shuningdek, maishiy binolarning va maishiy xizmat ko‘rsatishning, tibbiyot va davolash-profilaktika xizmatini tashkil qilishning, umumiy ovqatlanishning holati ham katta ahamiyatga ega. Mehnatning estetik sharoitlari mehnat faoliyatining emotsiional tomoniga ta’sir qiladi. Bularga jumladan, ishlab chiqarish binolarini va uskunalarini turli rangga bo‘yash, ish o‘rinlarini yoritish, ishlab chiqarishda ohangdan foydalanish va hokazolar kiradi. Mehnat sharoitlarining xususiyatlaridan biri bo‘lgan mehnat gigienasi, xavfsizlik va estetikasi o‘z navbatida mehnat madaniyatini xarakterlaydi. Mehnat madaniyati esa ishlab chiqarish madaniyati, korxonaning tashkiliy-texnik madaniyati, mehnat madaniyati va jamoa a’zolarining shaxsiy madaniyatini anglatadi. Ammo ishlab chiqarishning konkret faoliyatida mehnat sharoiti va ishlab chiqarish madaniyatini bir-biridan ajartish maqsadga muvofiq emas. Mehnat sharoitini yaxshilash tadbirlarining ko‘pchiligi mehnat madaniyati va ishlab chiqarish madaniyati darajasini oshirish bilan chambarchas bog’liq hisoblanadi[3].

Mehnat muhofazasini yaxshilash bo‘yicha tuziladigan tadbirlar asosan quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

a) Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarini oldini olish:

-barcha yangi qurilayotgan ob’ektlarni mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi masalalarini qamrab olgan ishlab chiqarish ishlari loyihasi bilan ta’minlash;

-ish joylarida ishlayotgan barcha mashina va mexanizmlarning sozligi va texnikaviy holati ustidan qat’iy nazorat qilib borish hamda ularni belgilangan vaqtarda sinovdan o’tkazish;

-sodir bo’lgan baxtsiz hodisalar yana takrorlanmasligi uchun ularni tahlil qilib borish;

-xavfsizlik texnikasi holati ustidan uch bosqichli ma’muriy jamoat nazoratini doimiy ravishda olib borish;

-xavfsiz mehnat sharoitini ta’minlaydigan yangi moslama va vositalar ishlab chiqish;

-elektr qurilmalari va jihozlarining yerga ulanganligini tekshirib borish;

-ishchilarni maxsus kiyim boshlar va shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash, ulardan foydalanish darajasini nazorat qilib borish;

-ishchilar va injener-texnik xodimlarni xavfsizlik texnikasi bo'yicha qo'llanmalar bilan ta'minlab borish.

b) Ishlab chiqarishda kasallanishning oldini olish:

-ish joylarida va dam olish xonalarida me'yoriy mikroiqlim bo'lishini ta'minlash;

-ishchilar va xodimlarni ishga va ishdan avtobuslarda yoki shu maqsadlar uchun maxsus jihozlangan avtomobillardagina tashish;

-ishlab chiqarishda kasb kasalligini oldini olish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish;

-belgilangan ish turlari uchun tibbiy ko'riklarni tashkil qilish;

-ish joylari va dam olish xonalarining sanitariya holatini yaxshilash;

-loyiha asosida talab etiladigan ish joylari va binolarida shamollatish, shovqin va titrashni kamaytirish moslamalarini o'rnatish;

-maxsus kiyim boshlarni quritish, yuvinish xonalarini hamda issiq tsexlarda gaz suvlarini tashkil etish;

-belgilangan ish turlaridagi ishchilarni sut va boshqa profilaktik oziq-ovqatlar bilan ta'minlashni tashkil etish:

v) Mehnat sharoitlarini yaxshilash:

-ishlab chiqarish madaniyatini yuksaltirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar va yangi texnikalarni joriy etish;

-xavfsizlik texnikasi holatini yaxshilashga yo'naltirilgan ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini keng yo'lga qo'yish;

-xavfsizlik texnikasi holatini yaxshilashga yo'naltirilgan musobaqalar tashkil etish;

g) Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish hamda targ'ibot ishlarini olib borish:

-barcha ishchilar va injener-texnik xodimlarni xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish, yo'riqnomalar o'tish va bilimlarini sinovdan o'tkazish;

-mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha maxsus xonalar tashkil etish;

- mehnat muhofazasi bo‘yicha seminarlar tashkil etish;

-yangi joriy etilgan texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar va qo‘llanmalar ishlab chiqish[4].

Tadqiqotning maqsadi. Har bir korxona mehnatni muhofaza qilish uchun zarur mablag’larni jamoa shartnomasida belgilangan miqdorda ajratadi. Korxonalarning hodimlari ana shu maqsadlar uchun qandaydir qo’shimcha chiqim qilmaydilar. Korxonalar o’zining xo’jalik, tijorat, tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyatidan keladigan foyda (daromad), shuningdek boshqa manbalar hisobiga mehnatni muhofaza qilishning markazlashtirilgan fondlarini tashkil etish huquqiga ega. Mehnatni muhofaza qilish fondiga qaratiladigan foydaga soliq solinmaydi. Mehnatni muhofaza qilishga mo’ljallangan mablag’larni boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin emas. (O’zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to’g’risidagi qonuni, 22.09.2016y.)

Tadqiqotning amaliy natijalari. Yuqorida keltirilgan tadbirlar majmui korxonaning ishlab chiqarish sohasiga bog’liq holda kerakli qo’shimchalar bilan to’ldirilishi yoki o’zgartirilishi mumkin.

Ushbu tadbirlarni amalgalash uchun rejorashtirilgan mablag’larni quyidagi tartibda taqsimlash maqsadiga muvofiq hisoblanadi:

- ishlab chiqarishda sodir bo’lgan baxtsiz hodisalarini oldini olish uchun – 40%;**
- kasallanishni oldini olish uchun – 20%;**
- mehnat sharoitini yaxshilash uchun – 30%;**
- mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitish hamda targ’ibot ishlarini olib borish uchun – 10%.**

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida hodimlarni mehnat sharoitlarini yaxshilash, korxonlarda xavfsizlik madaniyatining shakllanishiga eng avvalo xavfsiz mehnat qilish sharoitini yaratadi, mahsulot sifatini oshiradi, ish unumdoorligi yaxshilanadi, hodimlar xavfsiz va qulay sharoitlarga ega bo‘ladi bu esa, jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy ko‘rsatkichning oshishiga sabab bo‘ladi. Uning maqsadi ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ishchilarning hayoti va sog’lig’ini saqlashdir. Mehnat xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha barcha tashkiliy va texnik tadbirlarning asosini baxtsiz hodisalar orqali yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavflar va ularni har tomonlama tahlil qilish va baholash tizimi ko’zda tutilgan bo’lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Германия, 2007

2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./Darslik.-T.: “Tafakkur qanoti”, 2015.-336b.
3. E.I.Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. –T.:TIMI, 2014.-536 b.
4. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”,2014.– 268 b.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси хукумат портали.
2. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. www.mintrud.uz – Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги сайти.
4. www.bilim.uz – ОУМТВ сайти